MARKAZIY OSIYO XONLIKLARI TARIXINI O‘RGANISHDA YEVROPA SAYOHATCHILARI ASARLARINING MANBASHUNOSLIK AHAMIYATI

Muhammad Eshkuvatov

Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani

“Smart Words” xususiy maktabi

Tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurgan yevropalik sayohatchilar, olimlar, diplomatlar va harbiy xizmatchilarning asarlari tarixiy manba sifatida tahlil qilinadi. Aleksandr Byorns, Uilyam Murkroft, Jozef Volf, Ole Olufsen, Jeyms Abbot, Anri Moser, Jon Grover va Frederik Gustav Bernabi kabi mualliflarning asarlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma’lumotlar yoritiladi. Shuningdek, ushbu yozma manbalarning O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi ahamiyati va ulardan foydalanishning manbashunoslik jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo xonliklari, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, Yevropa sayohatchilari, yozma manbalar, sayohatnomalar, manbashunoslik, diplomatik aloqalar, XIX asr tarixi.

Kirish. O‘rta Osiyo xonliklari tarixini o‘rganishda mahalliy tarixiy asarlar bilan bir qatorda xorijiy sayohatchilar, diplomatlar va tadqiqotchilar tomonidan yozib qoldirilgan manbalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XIX asrda Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishi kuchayib, mintaqaga turli maqsadlarda sayohatchilar, elchilar, harbiy xizmatchilar va olimlar tashrif buyura boshladi. Ushbu sayohatchilarning kuzatuvlari va yozma asarlarida Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo‘qon xonliklarining siyosiy boshqaruvi, savdo-sotiq munosabatlari, shaharlar hayoti,

urf-odatlari, diniy qarashlari va xo‘jalik faoliyatiga oid ma’lumotlar o‘z aksini topgan[1].

Mazkur manbalar O‘zbekiston tarixini o‘rganishda mahalliy yozma manbalarda kamroq yoritilgan masalalarni tadqiq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, yevropalik mualliflarning ayrimlari o‘z davlatlarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘liq faoliyat olib borgan. Shu sababli ularning asarlaridagi ma’lumotlarni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy o‘rganish va tanqidiy tahlil qilish zarur.

Tezisning maqsadi XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklariga tashrif buyurgan yevropalik sayohatchilar va tadqiqotchilarning asarlarini tizimlashtirish hamda ularning O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi manbashunoslik ahamiyatini yoritishdan iborat.

Asosiy qism. *Aleksandr Byorns va Uilyam Murkroft asarlarida Buxoro amirligi tarixi***.** Aleksandr Byornsning *Travels into Bokhara* – “Buxoroga sayohat” nomi bilan tarjima qilinadigan asari O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishda muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Muallifning 1831-1833-yillardagi sayohatlari natijasida yaratilgan ushbu asarda Buxoro amirligi va unga tutash hududlarning shaharlari, aholisi, savdo-sotiq munosabatlari, pul muomalasi hamda siyosiy hayotiga oid ma’lumotlar keltirilgan. Asarning uch jildi 1834-yilda Londonda nashr etilgan[2]. Byornsning asari Buxoro amirligining XIX asr birinchi yarmidagi siyosiy va iqtisodiy hayotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Undagi ma’lumotlardan foydalanishda muallifning safar maqsadi va kuzatuvlari amalga oshirilgan tarixiy sharoitni ham hisobga olish lozim. Uilyam Murkroftning Markaziy Osiyoga qilgan sayohatlari ham mintaqa tarixiga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Uning Jorj Trebek

[1]Holdsworth, M. *Turkestan in the Nineteenth Century: A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand, and Khiva*. London: Central Asian Research Centre, 1959, p.81

[2]Burnes, A. *Travels into Bokhara: Being the Account of a Journey from India to Cabool, Tartary and Persia; Also, Narrative of a Voyage on the Indus, from the Sea to Lahore…* Vols. I-III. London: John Murray, 1834.

bilan birgalikda amalga oshirgan sayohatlari haqidagi hujjatlar Horas Hayman Uilson tahriri ostida 1841-yilda Londonda nashr etilgan. *Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshawar, Kabul, Kunduz, and Bokhara* nomli asarda geografik hududlar, yo‘llar, aholi va mintaqalar o‘rtasidagi aloqalar haqida ma’lumotlar berilgan[3].

Jozef Volfning Buxoro amirligiga safari va diplomatik munosabatlar. Jozef Volf XIX asrda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan yevropalik sayohatchi va missionerlardan biri hisoblanadi. Uning 1845-yilda nashr etilgan *Narrative of a Mission to Bokhara, in the Years 1843–1845, to Ascertain the Fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly* nomli asari alohida ahamiyatga ega. Kitob polkovnik Charlz Stoddart va kapitan Artur Konollining taqdirini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan safar bilan bog‘liq[4]. Mazkur asarda Buxoro amirligidagi siyosiy vaziyat, mahalliy hokimiyat vakillari bilan uchrashuvlar va diplomatik munosabatlarga oid ma’lumotlar berilgan. Muallifning kuzatuvlari XIX asrda Buxoro amirligi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Volfning asari orqali Buxoro amirligidagi diplomatik munosabatlarning murakkabligi, xorijiy vakillarning faoliyati va o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Biroq muallifning voqealarga bergan baholarini boshqa manbalar bilan qiyoslash lozim[5].

Ole Olufsenning tadqiqotlari va Buxoro amirligi tarixi. Daniyalik harbiy ofitser va sayohatchi-tadqiqotchi Ole Olufsen Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishga muhim hissa qo‘shgan yevropalik mualliflardan biridir. U Buxoro

[3] Moorcroft, W.; Trebeck, G. *Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab; in Ladakh and Kashmir; in Peshawar, Kabul, Kunduz, and Bokhara, from 1819 to 1825*. Ed. H. H. Wilson. Vol. II. London: John Murray, 1841, Volume 2: p. 345

[4] Wolff, J. *Narrative of a Mission to Bokhara, in the Years 1843–1845, to Ascertain the Fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly*. Vols. I–II. New York: Harper & Brothers, 1845. Volume 1: p. 208-248, Volume 2: p. 250-342

[5] Wolff, J. *Narrative of a Mission to Bokhara, in the Years 1843–1845, to Ascertain the Fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly*. Vols. I–II. New York: Harper & Brothers, 1845. Volume 1: p. 208-248, Volume 2: p. 250-342

amirligi va uning hududlariga qilgan sayohatlari davomida tarixiy, geografik va etnografik ma’lumotlar to‘plagan.

Olufsenning 1911-yilda nashr etilgan *The Emir of Bokhara and His Country: Journeys and Studies in Bokhara (with a Chapter on My Voyage on the Amu Darya to Khiva)* nomli asari Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Kitobda Buxoro shahri, amirlikning hududlari, mahalliy aholining turmush tarzi, me’moriy inshootlar, diniy hayot va xo‘jalik faoliyatiga oid kuzatishlar berilgan. Asarda Amudaryo orqali Xivaga qilingan safarga bag‘ishlangan alohida bo‘lim ham mavjud[6]. Olufsenning qaydlari Markaziy Osiyoning geografik xususiyatlari, tarixiy obidalari va madaniy hayotini o‘rganishda ahamiyatlidir. Xususan, uning Buxoro shahri, mahalliy boshqaruv, aloqa va transportga oid kuzatishlari tarixiy ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi[7].

Jeyms Abbot va Anri Moser asarlarida Xiva hamda Buxoro xonliklari. Jeyms Abbot 1843-yilda Londonda *Narrative of a Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St. Petersburgh, during the Late Russian Invasion of Khiva* nomli ikki jildli asarini nashr ettirgan. Unda Hirotdan Xivaga, keyinchalik Moskva va Sankt-Peterburgga qilingan safar, Xiva saroyi va xonlik hududiga oid kuzatishlar bayon etilgan[8]. [6] Abbotning sayohatnomasi XIX asrda Xiva xonligi va unga tutash hududlarni o‘rganish uchun muhim yozma manba hisoblanadi. Asarda qayd etilgan geografik ma’lumotlar o‘sha davrdagi sayohat yo‘nalishlari va mintaqalararo aloqalarni tadqiq qilishda foydalanilishi mumkin. Muallifning Xiva haqidagi kuzatuvlarini tegishli tarixiy sharoit bilan

[6] Olufsen, O. *The Emir of Bokhara and His Country: Journeys and Studies in Bokhara (with a Chapter on My Voyage on the Amu Darya to Khiva)*. Copenhagen: Nordisk Forlag, 1911, p. 599, p. 486

[7] Olufsen, O. *The Emir of Bokhara and His Country: Journeys and Studies in Bokhara (with a Chapter on My Voyage on the Amu Darya to Khiva)*. Copenhagen: Nordisk Forlag, 1911, p.340-355, p.189-241

[8] Abbott, J. *Narrative of a Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St. Petersburgh, during the Late Russian Invasion of Khiva; with Some Account of the Court of Khiva and the Kingdom of Khaurism*. Vol. I. London: H. Allen, 1843, p. 401

bog‘liq holda o‘rganish zarur[9]. [6] Shveysariyalik sayohatchi va tadqiqotchi Anri Moser ham Markaziy Osiyoga safar qilgan. U 1886-yilda Parijda *À travers l’Asie Centrale: La steppe kirghize, le Turkestan russe, Boukhara, Khiva, le pays des Turcomans et la Perse. Impressions de voyage* nomli asarini nashr ettirgan. Kitobda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarga oid sayohat taassurotlari, jumladan, Amudaryo bo‘ylab safar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan[10]. Moserning asari XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududlari, shaharlar va transport yo‘nalishlari haqidagi Yevropa kuzatuvlarini o‘rganishda foydalanilishi mumkin. Undagi ma’lumotlarni muayyan shahar yoki tarixiy hodisaga bog‘lashda asarning tegishli bo‘limlarini alohida tekshirish talab etiladi[11].

Jon Grover va Frederik Gustav Bernabi asarlarida siyosiy vaziyat. Britaniyalik muallif Jon Grover XIX asrda Buxoro amirligida bo‘lgan ingliz zobitlari Charlz Stoddart va Artur Konollining taqdiri bilan bog‘liq voqealarni yoritgan. Grover 1843-yilda *An Appeal to the British Nation on Behalf of Colonel Stoddart and Captain Conolly* nomli murojaatni nashr ettirgan. 1845-yilda esa shu voqealar bilan bog‘liq *The Bokhara Victims* asari chop etilgan. Ushbu nashrlar Stoddart va Konollining taqdiri hamda Britaniya hukumatining bu masaladagi faoliyatiga doir munozaralarni o‘rganishda muhim manbalardir[12]. Grover asarlaridan foydalanishda muallifning voqealarga munosabati va u tayangan xabarlarning kelib chiqishini hisobga olish kerak. Ayniqsa, diplomatik voqealar haqidagi ma’lumotlarni Jozef Volfning safar

[9] Abbott, J. *Narrative of a Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St. Petersburgh, during the Late Russian Invasion of Khiva; with Some Account of the Court of Khiva and the Kingdom of Khaurism*. Vol. I. London: H. Allen, 1843, p. 401

[10] Moser, H. *À travers l’Asie Centrale: La steppe kirghize, le Turkestan russe, Boukhara, Khiva, le pays des Turcomans et la Perse. Impressions de voyage*. Paris: E. Plon, Nourrit et Cie., 1886, p. 463

[11] Moser, H. *À travers l’Asie Centrale: La steppe kirghize, le Turkestan russe, Boukhara, Khiva, le pays des Turcomans et la Perse. Impressions de voyage*. Paris: E. Plon, Nourrit et Cie., 1886, p. 463

[12] Grover, J. *An Appeal to the British Nation on Behalf of Colonel Stoddart and Captain Conolly, Now in Captivity in Bokhara*. London, 1843; shuningdek: Grover, J. *The Bokhara Victims*. London: Chapman and Hall, 1845, p. 367

qaydlari va boshqa tarixiy manbalar bilan qiyoslash muhimdir[13]. Frederik Gustav Bernabi esa Xiva xonligi va Markaziy Osiyoga qilgan sayohati bilan tanilgan. Uning 1876-yilda Londonda nashr etilgan *A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia* nomli asarida Xivaga safar, yo‘l sharoitlari va muallifning mintaqadagi kuzatishlari bayon etilgan. Kitobda Xiva shahri va uning aholisi haqidagi tasvirlar ham mavjud[14]. [9] Bernabining sayohatnomasi Xiva xonligi tarixini, shuningdek, XIX asrda Markaziy Osiyoga bo‘lgan Yevropa qiziqishini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Muallifning kuzatuvlari orqali mintaqadagi siyosiy vaziyat va mahalliy aholining kundalik hayotiga oid ayrim jihatlarni tahlil qilish mumkin. Bunda sayohatchining shaxsiy taassurotlari bilan tekshiriladigan tarixiy ma’lumotlarni farqlash zarur[15]. [9]

Meri Holdsvort tadqiqotining tarixshunoslikdagi o‘rni. Meri Holdsvort XX asrda Markaziy Osiyo xonliklari tarixiga oid tadqiqot olib borgan mualliflardan biridir. Uning *Turkestan in the Nineteenth Century: A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand, and Khiva* nomli asari 1959-yilda nashr etilgan. Tadqiqot Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklarining XIX asrdagi tarixini umumlashtirib yoritishga qaratilgan[16]. [10]

Holdsvortning tadqiqoti yevropalik sayohatchilarning bevosita kuzatuvlariga asoslangan sayohatnomalardan farqli ravishda, xonliklar tarixini umumiy tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Shu jihatdan, ushbu asardan sayohatchilar tomonidan qoldirilgan ma’lumotlarni tarixiy kontekstda tahlil qilishda foydalanish mumkin. [10] Yevropalik sayohatchilar va tadqiqotchilarning asarlari umumiy jihatdan O‘rta Osiyo xonliklarining

[13] Grover, J. *An Appeal to the British Nation on Behalf of Colonel Stoddart and Captain Conolly, Now in Captivity in Bokhara*. London, 1843; shuningdek: Grover, J. *The Bokhara Victims*. London: Chapman and Hall, 1845, p. 367

[14] Burnaby, F. *A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia*. London: Cassell, Petter & Galpin, 1876, p. 470

[15] Burnaby, F. *A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia*. London: Cassell, Petter & Galpin, 1876, p. 470

[16] Holdsworth, M. *Turkestan in the Nineteenth Century: A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand, and Khiva*. London: Central Asian Research Centre, 1959, p.81

siyosiy, iqtisodiy, geografik va madaniy tarixiga oid ma’lumotlarni qamrab oladi. Biroq ulardan foydalanishda mualliflarning maqsadi, siyosiy qarashlari, ma’lumot to‘plash sharoitlari va nashr tarixini hisobga olish zarur.

Xulosa. O‘rta Osiyo xonliklari tarixini o‘rganishda yevropalik sayohatchilar, olimlar, diplomatlar va harbiy xizmatchilarning yozma merosi muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega. Aleksandr Byorns, Uilyam Murkroft, Jozef Volf, Ole Olufsen, Jeyms Abbot, Anri Moser, Jon Grover va Frederik Gustav Bernabi kabi mualliflarning asarlarida Buxoro amirligi hamda Xiva va Qo‘qon xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma’lumotlar aks etgan. Ushbu asarlar orqali XIX asrdagi savdo-sotiq munosabatlari, diplomatik aloqalar, shaharlar hayoti, geografik yo‘nalishlar va mahalliy aholining turmush tarzini o‘rganish mumkin. Shuningdek, mazkur manbalar Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishi va mintaqadagi siyosiy raqobatning ayrim jihatlarini yoritadi. Shu bilan birga, yevropalik mualliflarning kuzatuvlarini mutlaq xolis ma’lumot sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas. Ularning ayrimlari o‘z davlatlarining siyosiy, harbiy yoki iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘liq faoliyat olib borgan. Shu sababli ushbu manbalarni mahalliy tarixiy asarlar va arxiv hujjatlari bilan qiyosiy o‘rganish O‘zbekiston tarixini yanada chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abbott, J. *Narrative of a Journey from Heraut to Khiva, Moscow and St. Petersburgh, during the Late Russian Invasion of Khiva*. Vols. I–II. London: H. Allen, 1843.

2. Burnaby, F. *A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia*. London: Cassell, Petter & Galpin, 1876.

3. Burnes, A. *Travels into Bokhara*. Vols. I–III. London: John Murray, 1834.

4. Grover, J. *An Appeal to the British Nation on Behalf of Colonel Stoddart and Captain Conolly*. London, 1843.

5. Grover, J. *The Bokhara Victims*. London: Chapman and Hall, 1845.

6. Holdsworth, M. *Turkestan in the Nineteenth Century: A Brief History of the Khanates of Bukhara, Kokand, and Khiva*. London: Central Asian Research Centre, 1959.

7. Moorcroft, W.; Trebeck, G. *Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab…* Ed. H. H. Wilson. Vols. I–II. London: John Murray, 1841.

8. Moser, H. *À travers l'Asie Centrale: La steppe kirghize, le Turkestan russe, Boukhara, Khiva, le pays des Turcomans et la Perse. Impressions de voyage*. Paris: E. Plon, Nourrit et Cie., 1886.

9. Olufsen, O. *The Emir of Bokhara and His Country: Journeys and Studies in Bokhara*. Copenhagen: Nordisk Forlag, 1911.

10. Wolff, J. *Narrative of a Mission to Bokhara, in the Years 1843–1845, to Ascertain the Fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly*. Vols. I–II. New York: Harper & Brothers, 1845.